



QADIMGI ROMUSHTEPA BO'YICHA AYRIM QAYDLAR

Rajabov Oybek Iskandarovich

BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi

kafedrasida katta o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20066746>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 03-may 2026 yil

Ma'qullandi: 05-may 2026 yil

Nashr qilindi: 07-may 2026 yil

KEYWORDS

Buxoro, tarixiy arxeologik
ob'yekt, Zarafshon,
Moxondaryo, Romush tepa,
Xo'jayi Romush, tarixiy qal'a,
tepalik, xum, arxeologik
ashyolar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Buxoro viloyati Jondor tumani shimoliy hududida joylashgan qadimgi Romushtepa va uning atrofidagi tarixiy tepalar va qal'alarning arxeologik o'rganganligi borasida atroflicha ma'lumotlar bayon etilgan..

O'rta Osiyo tarixi qadim-qadimlarga borib taqaladi. Har bir tarixiy shaharlarning shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o'tgan. Qadimgi Romushtepa tarixi ko'chmanchi qabilalar yarim o'troqlashgandan to'la o'troqlashguncha ham ko'p tarixiy davrni o'tgan. Ana shu o'troqlasha borish jarayoni miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning ikkinchi yarmida ya'ni, bundan 4-4,5 ming yil muqaddam Buxoro vohasining daryo adoqlarida endigina ibtidoiy dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug'ullanuvchi ilk qishloqlar paydo bo'lib, odamlar ayrim yertula va cho'pkori yengil chaylalaridan iborat turar joylarda yashaganlar. Bunday ilk qishloqlarda xonaki hunarmandchilikning kulolchilik, misgarlik, sangtaroshlik, charmgarlik, to'qimachilik kabi turlarigina mavjud bo'lib, ular kasb-hunarning rivoj topgan mustaqil sohasi darajasiga yetib bormagan edi.

Ko'hna Zarafshon daryosi o'zanlari yoqasida, ya'ni uning shaxobchalari bo'yida birin-ketin ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy jarayonlarda aholi madaniy qatlamlari paydo bo'la boshlagan. Urug'chilikka asoslangan odamlar jamoa bo'lib yashash uchun Zarafshonning asosiy o'zani va irmoqlari bo'ylaridagi qulay tabiiy sharoitga qarab joylasha borib, turar-joylar bunyod etishgan. Muhammad Narshaxiy bu jarayonni quyidagicha ta'riflaydi: "Avval ular chodir va o'tovlarda turar edilar, so'ng vaqt o'tishi bilan odamlar yig'ilishib, imoratlar ko'rdilar ...".

Zarafshon o'zani bo'ylab o'nlab qadimiy qishloqlar, qal'a xarobalari bundan guvohlik beradi. Bunday manzilgohlarning unchalik qalin bo'lmagan qatlamlari va bu madaniy qatlamlarning doimiy shamol eroziyasi oqibatida yemirilib, ochilib, tuproq va qum orasidagi sopol parchalari va tosh qurollar har tomonga sochilib yotishi o'sha davrda, shu muzofotda hayot barq urib rivojlanganligidan darak beradi.

Jondorning shimoliy qismida, Romitanga borish yo'lida ko'zga yaqqol tashlanib turuvchi Romushtepa ham yaqin atrofda o'nlab qadimiy tepalik (qal'a)lardan biridir. Uzoq o'tmishdan

guvohlik beruvchi bu tepalik ham bosqinchilar va talonchilardan mudofaa istehkomi sifatida inson qo'li bilan bunyod etilib, atrofi devor (qal'a) bilan o'rab olingan. Odamlar qal'a ichkarisida yashagan.

Romush - fors-tojikcha so'z bo'lib, "Rohati mushk" yoki "rohatbaxsh mushk" - ya'ni gul va o'simlik hidi anqib turgan, xushbo'y, tanga rohat bag'ishlovchi ma'nolarni bildiradi. Romushtepaning qadimgi Zarafshon daryosi o'zani yaqinida joylashganligi ham bu fikrni tasdiqlaydi. "Romush" so'zining mazmuni haqida xalq orasida ham og'izdan-og'izga ko'chib kelayotgan qiziq bir rivoyat mavjud. Emishki, "Romush" aslida "Oromush" deb atalgan. Chunki uni qurdirgan Kayxusravning turon shoxi Afrosiyobni o'ldirib, otasi Siyovushning xunini olgach, ko'ngli xuddi shu joyda orom olganmish. Shundan so'ng, g'alaba sharafiga o'zidan yodgorlik qoldirish maqsadida, Kayxusrav bu shaharchaga "Oromush" deb nom qo'yadi. Vaqt o'tishi bilan "Oromush" so'zi Romush bo'lib ketgan. Milliy ensiklopediyada keltirilishicha, Romushtepa quldorlik davri arxeologik yodgorligi bo'lib, miloddan avvalgi VII-V asrlarda bunyod etila boshlangan. Bu tepalik haqida o'rta asr tarixchilari Abu Hasan Nishopuriy, Narshaxiy va Abu Rayhon Beruniy asarlarida ko'plab ma'lumotlar keltiriladi. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" da shunday yozilgan:

"Katta bir ko'handizga ega va mustahkam bir qishloq bo'lgan Romtin (Romitan)ni Afrosiyob bino qilgan. U har vaqt bu viloyatga kelganida, shu qishloqdan boshqa joyda turmagan. Afrosiyob o'zining Siyovush nomli kuyovini o'ldirgan. Siyovushning Kayxusrav nomli o'g'li bo'lib, u otasining qonini talab qilib, ko'p lashkar bilan bu viloyatga kelganida, Afrosiyob Romitan qishlog'ini hisor qilib turgan. Kayxusrav o'z lashkari bilan ikki yil shu hisor atrofini o'rab turdi va uning ro'parasida bir qishloq bunyod qilib, u qishloqni Romush deb atadi. Bu qishloq hozirgacha oboddir. Kayxusrav qishlog'ida otashparastlar ibodatxonasini qurdi. Kayxusrav ikki yildan keyin, Afrosiyobni tutib o'ldirdi ...".

O'rta Osiyoga sayyoh sifatida kelgan va Buxoro tarixi haqida asar yozgan venger (mojar) sayyohi Herman Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarida shunday ma'lumotni keltiradi: "Boykand butun Movarounnahrning janubiy g'arbiy eshigi bo'lganidan uni fatx etish arablar uchun muhim ahamiyatga ega edi. So'g'd va Romitan, Romushdan keyin eng taraqqiy etgan bu shaharda fotixlar behisob o'lja boyliklarni qo'lga kiritgan edilar" Vamberi fikricha, So'g'd va Romitaning yoshi Boykanddan qadimiyroq bo'lib, Romush ham undan oldin taraqqiy etgan shaharlar qatorida turgan. Boykand (Poykent)ni ishg'ol etib, shahar aholisiga omonlik bergan, ularga Barko ibn-Nasr Boxiliyni amir tayinlagan Qutayba "Xunbunga qarab jo'nadi va janglab qilib, Xunbunni, Torobni hamda ko'pgina mayda qishloqlarni (jumladan Romushni ham) oldi" ... deb yozadi Narshaxiy. Katta qo'shin bilan qishlog'u shaharlarni o'z tasarrufiga o'tkazib, zo'ravonlik bilan tub aholini majburan Islomga kiritgan Qutayba Buxoro historiga hujum boshlashdan oldin, shaharning janubi g'arbiy tomonidagi o'nlab qishloqlarni birin-ketin qo'lga kiritgan va yuqoriga qarab siljib boravergan. Ammo bosqin va talonda ozurdadil bo'lgan xalq bunga befarq qarab turmadi. Ana shu yulda bo'lgan Xunbun, Torob, Romush va Romitan oralig'ida bosqinchiga qarshi turishga yaragulik ko'p lashkar to'plana boshladi.

So'g'd podshosi Tarxun, Buxoro hukmroni Xunukxudot, Vardonxudot Qutaybaga qarshi o'zlarining butun boshli qo'shini bilan Romush va Romitan oralig'ida to'plangan. Narshaxiyning yozishicha, "Xitoy podshohining jiyani Malik Kurmagonunni yollagan edilar, u ham Qutaybaga qarshi jangda So'g'd podshoxiga yordam berish uchun 40 ming lashkar bilan keldi". Ana shu tariqa Romush qal'asi ham Torob va Romitan singari mustahkam istehkomga aylandi. To'rt

tomondan qurshab olingan yuz minglab lashkarga bas kelolmagan Qutayba chorasiz qoladi. Yengilishini aniy bilgach, hiylayu nayrang ishlatimdan boshqa chorasi qolmagan edi. U so'g'd podshohi Tarxun bilan boshqa hukmdorlar o'rtasiga nifoq solib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yadi. Bu xiyla ish berib, qo'shin orasida parokandalik boshlanib, yordamga kelgan hukmronlar, xususan, Malik Kurmagonun qo'shini karnay chalib, lashkari bilan o'z yurtiga qaytib ketadi. Yakkalanib qolgan Xunuxudot va Vardonxudot Qutayba qo'shiniga dosh berolmaydi. Shunday qilib, 4 oylik qamal va ochlikdan so'ng, Romitan va Romush kal'asi bosib olinadi. Islomiyat davrida Romush qishlogi ahli ham majburan musulmonchilikni qabul qildi. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlandi. Bu yerda kulolchilik, keyinchalik misgarlik, to'quvchilar va teriga ishlov berish, vaqt o'tgach, temirchilik rivojlanib, Romush shuhratini atrofga yoydi. Manbalarda ketirilishicha, Buxoroga amir bo'lgan Ismoil Somoniy hukmronligi davrigacha Romush obod va rivojlangan qishloqlar qatorida turgan.

Mug'ullar bosqini davriga kelib, Romushtepada hayot birmuncha susayib, oddiy xalq zabr-zulm ostida ezilgan, xarob bo'lgan. Amir Temur davrida Samarqand Buxoro qatori uning atrof qishloqlari, xususan, Romitan va Romush aholisi qomatini tik oldi. Shayboniylar davrida ham bu hududda qattiq janglar sodir etilgan. Buni Muhammad Solih shunday ta'riflaydi: Romitan va Romush shaharlari oralig'idagi jang tafsiloti bayon etilgan. Romushtepa to'rtta bir-biriga tutash tepalikdan iborat bo'lib, markaziy baland qismi "Shayxi kalon", unga g'arb tomondan tutashgan ikkinchi tepa "Guli sang", uchinchi esa "Xo'ja Romush" deb ataladi. Yana bir kichikroq, nomi aniqlanmagan tepalik buzib yuborilgan bo'lib, uning o'rnida hozir mevazor, bog', masjid, hovuz barpo etilgan. Faqat eng baland "Guli sang" tepaligida arxeologik o'rganish ishlari olib borilgan. Qazish davomida juda ko'p sopol buyumlar topilib, ular asosida tepalikning yoshini aniqlashga erishilgan. Romushtepadan topilgan sopol buyumlar o'z shakli, bo'yog'i va yasalish usuliga ko'ra, Varaxsha va Romitan shahar xarobalari topilmalariga juda yaqin hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. В.А.Шишкин. Варахша. М.,1963.
2. Ҳерман Вамбери.Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи. Т.,1990.
3. А.Муҳаммаджонов. Бухоро тарихи. Т.,1991.
4. М.Наршахий. Бухоро тарихи.Т.,1991.
5. Нарзулла Йўлдошев. Бухородаги айрим авлиёлар тарихи.Бухоро. 1993.
6. Ҳ.Асадов. Беш мўжиза-беш тарих.Бухоро. 2008.
7. Ҳ.Асадов. Аждодлари қимматли юрт. Бухоро. 2011.
8. Садриддин Салим Бухорий Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари.Т.2015.